

**Kuvondikov Rustam Abdurasul o'g'li,
Egamberdiyeva Umrinisa Tursunqulovna.
Mirzo Ulug'bek nomidagi
O'zbekiston Milliy universiteti,
Geografiya va geoaxborot tizimlari fakulteti,
o'qituvchi**

CHORVACHILIKNING O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

IQTISODIYOTIDA TUTGAN O'RNI

Annotatsiya. Maqolada chorvachilikning mamlakat iqtisodiyotida tutgan o'rni, oziq-ovqat xavfsizligi, iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashdagi ahamiyati yoritib berilgan. Tarmoqni rivojlantirishga ta'sir etuvchi tabiiy, iqtisodiy, ijtimoiy, ekologik omillarga e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: Chorvachilik, qishloq xo'jaligi, oziq-ovqat xavfsizligi, yaylovlar, pichanzorlar, hayot sifati, kooperativlar.

**Кувондиков Рустам Абдурасул угли
Эгамбердиева Умриниса Турсункуловна
Имени Мирзо Улугбека
Национальный университет Узбекистана
Факультет географии и геоинформационных систем,
преподаватель
РОЛЬ ЖИВОТНОВОДСТВА В ЭКОНОМИКЕ РЕСПУБЛИКИ**

УЗБЕКИСТАН

Аннотация. В статье освещается роль животноводства в экономике страны, его значение в обеспечении продовольственной безопасности и экономической стабильности. Особое внимание уделяется природным, экономическим, социальным и экологическим факторам, влияющим на развитие отрасли.

Ключевые слова: Скотоводство, сельское хозяйство, продовольственная безопасность, пастбища, сенокосы, качество жизни, кооперативы.

**Kuvondikov Rustam Abdurasul o'g'li,
Egamberdiyeva Umrinisa Tursunqulovna.
In the name of Mirzo Ulugbek
National University of Uzbekistan
Faculty of Geography and Geoinformation Systems,
teacher**

THE ROLE OF ANIMAL HUSBANDRY IN THE ECONOMY OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN.

Abstract. This article examines the role of animal husbandry in the country's economy and its importance in ensuring food security and economic stability. Special attention is given to the natural, economic, social, and environmental factors that affect the development of this sector.

Keywords: Livestock, agriculture, food security, pastures, haymaking, quality of life, cooperatives.

Kirish. Chorvachilik O‘zbekiston iqtisodiyotida muhim ahamiyatga ega bo‘lib, YAIMning 13% ini, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining 50 foizi shu tarmoqqa to‘g‘ri keladi. Bu tarmoq oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlash bilan birga qishloq joylarda aholini ish joylari bilan ham ta‘minlaydi, qishloq tumanlarining rivojlanishiga turki beradi va mahalliy aholining an‘anaviy turmush tarzini yaxshilaydi. Globallashuv va iqlim o‘zgarishi sharoitida O‘zbekiston chorvachiligi bir qator chaqiriqlarga duch kelmoqda, bu esa tarmoqni majmual tahlil qilishni, hamda samarali yechimini topishni talab qiladi.

Mavzuning dolzarbligi chorvachilikning bugungi kundagi holatini atroflicha o‘rganish va kelajakdagi rivojlanish imkoniyatlarini aniqlash zarurligi bilan bog‘liq. Keyingi yillarda qishloq xo‘jaligini barqaror rivojlantirishga e‘tibor kuchayib bormoqda, bu esa sohani tadqiq qilishning zarurligini ko‘rsatadi. Shu bilan birga aholi sonining ortishi, oziq-ovqat mahsulotlariga bo‘lgan talabning ko‘payishi bu sohaning samaradorligi va barqarorligini oshirishga yordam beradigan innovatsion yondashuvlarni joriy etish yo‘llarini ko‘rib chiqish lozim.

Shu bilan birga tarmoq rivojlanishining bugungi holati, tarmoq va hududiy tarkibi, ishlab chiqariladigan asosiy mahsulotlar dinamikasiga e‘tibor qaratish lozim. Bu tarmoqning mamlakat iqtisodiyotidagi ahamiyatini ko‘rsatib beradi. Chorvachilik sohasini rivojlantirishdagi muammolar, zamonaviy chaqiriqlar, iqlim o‘zgarishi, tabiiy, iqtisodiy-ijtimoiy omillar ko‘rib chiqiladi.

Chorva mahsulotlari yetishtirishda mulkchilik shakllarining tutgan o'rniga alohida e'tibor qaratish lozim, chunki ular mahalliy darajadagi oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda alohida o'rin tutadi, shu bilan birga ularning mamlakat ishlab chiqarishidagi ulushini oshirish uchun qanday qo'llab-quvvatlash kerakligini ko'rib chiqish kerak.

Chorvachilikni ekologik jihatlarini ham ko'rib chiqmay, tarmoqning atrof muhitga ta'sirini o'rganmasdan turib, sohani barqaror rivojlantirib bo'lmaydi.

Chorvachilikni hududiy joylashtirish va rivojlantirishga tabiiy omillar bilan birgalikda iqtisodiy va ijtimoiy omillarning o'rnini ham kattadir. Bugungi kunda xalqaro va mahalliy raqobat ham chorvachilikning rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi, mahsulot sifatini yaxshilash va xarajatlarni optimallashtirishni rag'batlantiradi, bu o'z navbatida joylashtirishga ta'sir ko'rsatadi. Quyidagi jadvalda chorvachilik tarmoqlarini joylashtirish va ishlab chiqarishga ta'sir etuvchi omillar tahlili keltirilgan.

1-jadval

Chorvachilik tarmoqlarini joylashtirish va ishlab chiqarishga ta'sir etuvchi omillar

Omillar	Tavsifi	Joylashtirishga ta'siri
Tabiiy sharoitlar	Iqlim (harorat, yog'ingarchilik), relef (tog'lik, tekislik), tuproq sifati, suv havzasining mavjudligi.	Chorvachilik turlarini (qoramolchilik, qo'ychilik, parrandachilik va b.) va fermalarni joylashishini belgilaydi.
Iqtisodiy omillar	Ozuqa narxlari, yerlarning narxi, kreditlarning mavjudligi, sarmoya kiritish imkoniyati.	Xarajatlarning yuqoriligi ishlab chiqarishning kam xarajatli hududlarda to'planishiga olib keladi.
Ijtimoiy omillar	Ishchi kuchiga ega bo'lish, qishloq joylar aholisining turmush darajasi, madaniy an'analar.	Turmush darajasi yuqori bo'lgan hududlarda sifatli mahsulotlarga bo'lgan talabning ortishi ixtisoslashgan xo'jaliklarning shakllanishiga turtki bo'ladi.
Transport infratuzilmasi	Yo'llar, savdo bozorlariga	Logistika va bozorlarga kirishni osonlashtiradi, bu esa fermer

	yaqinlik, omborlar.	xo'jaliklarining joylashishiga ta'sir ko'rsatadi. Yaxshi transport tarmog'i mahsulotlarni bozorga tez yetkazib berish imkonini beradi, bu esa uning raqobatbardoshligini oshiradi.
Qonunchilik jihatlari	Ekologiya, hayvonlarni himoya qilish, veterinariya va aholi salomatligiga oid me'yorlar va qoidalar.	Muayyan yo'nalishlarning rivojlanishini cheklashi yoki rag'batlantirishi mumkin.
Ilmiy-texnika taraqqiyoti	Oziqlantirish, seleksiya, avtomatlashtirish, hayvonlar kasalliklarini diagnostika qilish.	Yangi texnologiyalar ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi va joylashtirishni o'zgartirishi mumkin. Zamonaviy texnologiyalardan foydalanish ishchi kuchiga bo'lgan ehtiyojni qisqartirish va yirik ixtisoslashgan xo'jaliklarni tashkil etishga olib kelishi mumkin.
Mahsulotga bo'lgan talab.	Sog'lom turmush tarziga bo'lgan intilish, organik mahsulotlarga bo'lgan talabni kuchaytiradi.	Ishlab chiqarish strategiyasi va fermalarning joylashishiga ta'sir ko'rsatadi. Ekologik toza mahsulotlarga bo'lgan talabning ortishi kichik fermer xo'jaliklarning ortishiga sababchi bo'ladi.
Iqlim o'zgarishi	Temperatura rejimining o'zgarishi, ekstremal ob-havo sharoitining ko'payishi (qurg'oqchilik, sellar)	Qishloq xo'jaligini yuritish sharoitlariga va chorvachilikning moslashishiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi, ishlab chiqarish hududlarini o'zgartirishi mumkin.
Xalqaro tendensiya va eksport.	Bozorning globallasuvi, yangi eksport imkoniyatlarining ochilishi.	Mahsulotlarni sotish uchun yangi bozorlarning ochilishi, ishlab chiqarish hajmini ko'paytirish maqsadida hududlarga kiritilayotgan sarmoyalar hajmini ko'payishiga ta'sir ko'rsatishi mumkin.
Raqobat	Mamlakat ichida va xalqaro maydonda ishlab chiqaruvchilar o'rtasidagi raqobat.	Mahsulot sifatini yaxshilash va xarajatlarni optimallashtirishni rag'batlantiradi, bu o'z navbatida joylashtirishga ta'sir ko'rsatadi.

Chorva mollarini hosildorligiga ular saqlanadigan fermalardagi sharoitlar ham bevosita ta'sir ko'rsatadi.

“Mamlakatlarda o'tkazilgan ko'plab tadqiqotlar natijalariga ko'ra,


фермалардаги qoniqarsiz mikroiklim tufayli sigirlarning sut mahsuldorligi 10 foizga, ozuqadan foydalanish samaradorligi esa, ayniqsa qish mavsumida 20-30 foizga pasayadi. Hayvon organizmi bilan atrof-muhit o'rtasidagi muvozanatning buzilishi (nomutanosiblik) hayvonlarning salomatligi yomonlashishiga va mahsuldorligi pasayishiga olib keladi.”¹

Chorva mollarini turiga, moslashuvchanligiga qarab, turli sharoitlarda boqiladi. O'zbekiston chorvachiligi boqish texnologiyasiga ko'ra ikki qismga bo'linadi. Yirik shoxli qoramollar deyarli fermalarda, yopiq binolarda boqiladi. Mayda shoxli qoramollar, yilqi, tuya, echki va boshqalar ko'proq yaylovlarda boqiladi. (1-rasm.)

Yaylov chorvachiligining rivojlanishi yaylovlarning ozuqa bazasi bilan bevosita bog'liq.

Qurg'oqchil zonadagi yaylov chorvachiligi ozuqa bazasi, asosan, uch manbadan tashkil topadi:

- cho'l va tog' etaklaridagi tabiiy yaylovlar;
- ekilgan va yaxshilangan yaylovlar;



1-rasm. Chorva mollarini saqlash usullari.

¹ Научный журнал молодых ученых.2020г.

Научные основы оптимизации условий содержания сельскохозяйственных животных и птицы.

-sugʻoriladigan maydonlarda yetishtirilgan hamda chorva mollarini saqlashning ogʻir davrlarida qoʻshimcha oziqlantirish uchun sotib olinadigan oзуqalar.²

Oʻzbekistonda choʻl va chala choʻl yaylovlar 23,3 million gektarni tashkil etib, qoʻychilikning asosiy oзуqа bazasi hisoblanadi. Bu yerda 5 million boshdan ortiq mayda shoxli chorva boqiladi.

Yaylov chorvachiligi butun qishloq xoʻjaligining anʻanaviy va muhim tarkibiy qismi hisoblanib, 3 milliondan ortiq aholining tirikchilik manbai boʻlib xizmat qilmoqda. Oila byudjetida yaylov chorvachiligidan olinadigan daromad 75 foiz va undan yuqorini tashkil etadi. Bu sohada deyarli barcha qorakoʻl teri, jun hamda ishlab chiqarilayotgan goʻshtning yarmiga yaqini yetishtiriladi.³

Yaylov va pichanzorlarni tabiiy sharoitiga qarab quyidagicha ajratish mumkin:

- ❖ Choʻl-tekislik yaylov-pichanzorlar;
- ❖ Tekislik-tepalikdagi yaylov-pichanzorlar;
- ❖ Togʻ oldi-togʻ yaylov-pichanzorlar.

Choʻl-tekislik va tekislik-tepalikdagi pichanzorlardan bahorda va kuzda, togʻ oldi,togʻ-yaylov pichanzorlardan faqat yozda chorvani boqishda foydalanish mumkin.

Oʻzbekiston Respublikasi boʻyicha pichanzorlar va yaylovlarning umumiy maydoni 2011-yildagi 20756,1 gektardan 2024-yilda 21190.4 gektarga (434,3) oshgan. Sugʻoriladigan pichanzorlar maydoni esa barcha viloyatlarda qisqargan.

2-Jadval.

Pichanzor hamda yaylovlarni Qoraqalpogʻiston Respublikasi va viloyatlar boʻyicha taqsimlanishi (ming ga.)

² Арифджанов Г., Толипов Х.,Мукимов Т., Саттаров С., “Улучшение использования пастбищных угодий” Журнал "Экономическое обозрение" №9/2023

³ Арифджанов Г., Толипов Х.,Мукимов Т., Саттаров С., “Улучшение использования пастбищных угодий” Журнал "Экономическое обозрение" №9/2023

	Hududlar nomi	Jami pichanzor va yaylovlar		Shundan sug'oriladigani	
		2011 yil	2024 yil	2011	2024
	O'zbekiston Respublikasi	20756,1	21 190,4	43.0	42,0
1	Qoraqalpog'iston Respublikasi	4780,9	5261,8	36.6	35.8
2	Andijon	21,3	21	0.9	0.8
3	Buxoro	2579,6	2 550,3		
4	Jizzax	758,0	702,0		
5	Qashqadaryo	1455,8	1 405,2	0.1	0.1
6	Navoiy	8763,6	8887,6		
7	Namangan	152,6	163,8		
8	Samarqand	793,8	793,2		
9	Surxondaryo	861,2	824,5		
10	Sirdaryo	22,0	19,9		
11	Toshkent	433,7	442,5	1.4	
12	Farg'ona	23,5	9,5	4.0	3,9
13	Xorazm	110,1	109,1		

Yaylovlarda chorva mollarini boqish quyidagi xususiyatlardan iborat:

- ❖ chorvani yaylovlarda saqlash va yaylovdagi ozuqadan mavsumiy foydalanish;

- ❖ yaylovlardan foydalanishda yillar va mavsumiylikning hosildorlikning o'zgarishiga ta'siri;

- ❖ yaylovlardan foydalanish samaradorligining hududning suv ta'minotiga bog'liqligi;

- ❖ noqulay sharoitlarda chorva mollarini qo'shni hududlarga ko'chirish tizimining qo'llanilishi.


Bugungi kunda qurg'oqchil yaylovlarning holati chorva mollarini boqish talablariga to'liq javob bera olmaydi. Yaylovlarning 40% i degradatsiyaga uchragan bo'lib, u yerlarning hosildorligi 20 % ga pasayib ketgan. Bu ko'rsatkichlar chorvachilikning keyingi rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Yaylov chorvachiligidan tashqari intensiv chorvachilik ham rivojlangan bo'lib, chorva fermalarda, dehqon xo'jaliklarining tomorqalarida boqiladi.

Chorvalik mahsulotlari dehqon xo'jaliklari, fermerlarning asosiy daromad manbalari hisoblanadi. Tomorqa xo'jaliklarining oziq-ovqat ta'minoti ko'proq

chorva mollarini boqish bilan bog‘liq bo‘lib, yirik shoxli qoramol, qo‘y va echkilar mahsulotlarini sotish bilan daromad oladilar.

Quyidagi diagrammada O‘zbekiston Respublikasida 2015-yildan-2023-yilgacha bo‘lgan davrda chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi milliard so‘mda ko‘rsatilgan. Bu chorvachilik tarmog‘ining rivojlanishini tahlil qilish imkoniyatini yaratadi. 2015-yildan 2023-yilgacha bo‘lgan davrda chorvachilik sohasida xizmat ko‘rsatishning barqaror o‘sish dinamikasi kuzatiladi. 2015- yilda 44,175.4 mlrd. so‘mlik mahsulot ishlab chiqarilgan bo‘lsa, 2023-yilga kelib 202,335.3 mlrd. so‘mga yetdi.



2-расм. Chorvachilikning asosiy ko‘rsatkichlari⁴

Chorvachilik sohasi bo‘yicha ixtisoslashgan fermer xo‘jaliklari 2024- yil 1-yanvar holatiga ko‘ra 9 688 tani, shundan, baliqchilik 3 395 ta, asalarichilik 210 ta, parrandachilik 937 tani tashkil qildi.

Respublikamizda 2024-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra, ularga ajratib berilgan umumiy yer maydoni 4 621,5 ming gektarni, shu jumladan, yaylov va pichanzorlar 911,8 ming gektarni tashkil qildi.

Yirik shoxli qoramolchilik ham ikki yo‘nalishga bo‘linadi. Go‘sht-sut, sut-go‘sht yo‘nalishi. Bu tarmoqlarni joylashtirishda avvalo iste‘mol omili ko‘proq e‘tiborga olinadi. Aholi ko‘p yashaydigan hududlarda sut va sut mahsulotlariga

⁴ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma‘lumotlari, 2024 yil.

bo'lgan talab yuqoriroq bo'ladi. Mamlakatimizga ham chet ellardan zotli mollarning olib kelinishi natijasida ixtisoslashgan fermalar ko'paymoqda.

“Jahon tajribasi tahlili shuni ko'rsatadiki, ixtisoslashgan go'sht chorvachiligini jadal rivojlantirmasdan mol go'shtiga bo'lgan to'lovga qodir talabni to'liq qondirish mumkin emas. G'arb mamlakatlarida sut yo'nalishidagi qoramolchilik Rossiyaga qaraganda ancha oldin intensiv rivojlanish yo'liga o'tgan, shuning uchun sut yo'nalishidagi sigirlar sonining kamayishi bilan bir vaqtda go'sht yo'nalishidagi sigirlar soni mutanosib ravishda ko'paytirilgan: bir sut yo'nalishidagi sigirga 1,1-1,2 ta go'sht yo'nalishidagi sigir to'g'ri kelgan. Natijada, yirik shoxli qoramollarning umumiy bosh sonida ixtisoslashgan go'shtli qoramollar ulushi quyidagicha bo'lgan: Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida - 40-50%, Avstraliyada - 85%, AQSh va Kanadada - 70-75% тенг.”⁵

Parrandachilik ham intensiv chorvachilik tarmog'iga kirib, parrandachilik mahsulotlariga talabning yuqoriligi sababli mamlakatimizning yirik shaharlari atrofida jadal rivojlanmoqda.

“Bunga davlatning turli ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlashi va ularning o'zaro integratsiyalashuvi katta yordam bermoqda. Shunga qaramay, parrandalarni inkubatsiya qilish, ularning mahsuldorligini oshirish hamda ozuqa va veterinariya preparatlari bilan ta'minlash masalalarida hali ham ayrim qiyinchiliklar mavjud”.⁶

Rivojlanayotgan davlatlar qishloq xo'jaligi rivojlanishining tahlili shuni ko'rsatadiki, barcha hududlarda qishloq xo'jaligiga xos xususiyatlar mavjud bo'lib, bu xususiyatlar O'zbekiston uchun ham xos.

. “Chorvachilikning past daromadi, yoshlarning chorvachilikdan tashqari ishlarga moyilligi, yaylovlarda chorvani sig'imidan ko'proq o'tlatish oqibatida yem-xashak yetishmasligi va qurg'oqchilikning oldini olish uchun taklif

⁵ А.Н. Лубков, Стратегия ускоренного развития мясного скотоводства: Проблемы и решения. Аграрный вестник Урала. № 6 (60), 2009.

⁶ Юлдашев Д.К. Динамика производства продукции животноводства в Республике Узбекистан // Техника и технологии в животноводстве. 2022. № 4(48). С. 32-36.

qilinishi mumkin bo'lgan yechimlardan biri qishloq joylarda chorvachilik kooperativlarini tashkil etish bo'lib, bu chorvadorlarning moliyaviy va texnik imkoniyatlarini oshirishi mumkin. Qishloq joylarda aholi farovonligi, dam olish maskanlari va ta'lim muassasalarini yaxshilash, shuningdek, chorvachilikning an'anaviy usullariga yangi texnologiyalarni joriy etish kasbni yanada jozibador qilish va turg'unlikning oldini olish imkonini beradi.”⁷

O‘zbekiston Respublikasida chorvachilikning rivojlantirish istiqbollari quyidagi omillar bilan bevosita bog‘liq.

✓ Aholi sonining ortishi va turmush darajasining yaxshilanishi natijasida sut, go‘sh t mahsulotlariga talab ortib boradi;

✓ Hukumatning turli dasturlar va subsidiyalar orqali qo‘llab-quvvatlashi;

✓ Zamonaviy texnologiyalarning joriy qilinishi, veterinariya xizmati va oziqlantirishning yaxshilanishi mahsuldorlikni oshiradi;

✓ Qo‘shni mamlakatlarga go‘sh t va sut mahsulotlarini eksporti daromadni ko‘paytiradi;

✓ Barqaror xo‘jalik yuritish usullari va ekologiyaga e‘tibor qaratish mahsulot sifatini yaxshilashi hamda resurslarni saqlashga yordam berishi mumkin;

✓ Kooperativlar va fermerlar uyushmalarini tashkil etish yem-xashak va veterinariya xizmatlarini birgalikda xarid qilish hamda mahsulotlarni sotishda yordam beradi, bu esa iqtisodiy samaradorlikni oshiradi;

✓ Transport va qayta ishlash infratuzilmasini yaxshilash orqali mahsulotni samarali taqsimlash isrofni kamaytiradi.

Davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish va barqaror xo‘jalik yuritish usullarini qo‘llashni inobatga olgan holda, O‘zbekistonda chorvachilikni yanada rivojlantirish va agrar sektordagi o‘z o‘rnini mustahkamlash uchun barcha imkoniyatlar mavjud. Chorvachilikni

⁷ Mehdi Moameri, Ardavan Ghorbani Factors affecting the downturn of traditional livestock husbandry in local communities of northwestern rangelands of Iran.

[Scientific Reports](#) July 2024 14(1)

samarali rivojlantirish iqtisodiy o'sishga hissa qo'shadi, шу билан бирга mamlakatning ijtimoiy va ekologik barqarorligini ta'minлайди.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Арифджанов Г., Толипов Х., Мукимов Т., Саттаров С., “Улучшение использования пастбищных угодий” Журнал "Экономическое обозрение" [№9/2023](#)
2. Mehdi Moameri, Ardavan Ghorbani Factors affecting the downturn of traditional livestock husbandry in local communities of northwestern rangelands of Iran. July 2024 14(1)
3. Лубков А.Н., Стратегия ускоренного развития мясного скотоводства: Проблемы и решения. Аграрный вестник Урала. № 6 (60), 2009.
4. Юлдашев Д.К. Динамика производства продукции животноводства в Республике Узбекистан // Техника и технологии в животноводстве. 2022. № 4(48). С. 32-36.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari, 2024 йил.
6. O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi huzuridagi Kadastr agentligining Davlat kadastrlari palatasi ma'lumoti, 2024 yil.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika Agentligi qishloq xo'jaligi statistik to'plami, 2024 yil.